



**ILKA QADAM DAVLAT O'QUV DASTURI ASOSIDA PEDAGOGIK  
JARAYONLARNI SHAKLLANTIRISH**

**Kabayorova So‘g'diyona Raxmonjon qizi**

*Namangan viloyati Chust tumani g'ova qishlog 'ida ONMTT da tarbiyachi Toshkent  
Kimyo Xalqaro universiteti Namangan filiali 1-bosqich magistranti Maktabgacha ta'lif  
va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi*

**Annotatsiya:** *o'qitish jarayoni, ta'lif berishning samaradorligini oshirish uchun, davlat tomonidan belgilangan o'quv dasturlari asosida amalga oshirilishi zarur. O'quv dasturlari o'qituvchilar va talabalarga ma'lum bir yo'nalishda ta'lif berish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, davlat o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga mosligi, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarning ta'lif jarayoniga integratsiyasi ham muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *davlat o'quv dasturi, pedagogik jarayon, o'quv reja, o'qitish metodlari, innovatsion yondashuvlar, ta'lif strategiyalari, bilim va ko'nikmalar, ta'lif muassasalari, zamonaviy ta'lif talabari, texnologiyalar integratsiyasi, pedagogik metodologiya, o'quv reja.*

Zamonaviy ta'lif tizimi davlat o'quv dasturlariga asoslanib, ta'lif jarayonlarini samarali tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada davlat o'quv dasturi asosida pedagogik jarayonlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ilk qadamlarga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonlar ta'lif sifatini oshirish, o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash maqsadida muhim ahamiyatga ega. Davlat o'quv dasturi muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. MTT Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini qo'llash huquqiga ega. MTT o'quv dasturi mutaxassislar va ota-onalarni jalg qilgan holda, pedagoglar tomonidan tuziladi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadi. Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lif va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lif va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lif va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi. Pedagog guruhdha shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lif jarayoniga jalg qilingandek his qilishi kerak. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

beradi. Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.

Bolalar o'rghanishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rghanishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin. Maktabagacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar o'z qobiliyatlarini umumiylar kompetensiyalar asosida yaratilgan rivojlanish sohasi kompetensiyalari bilan sayqallab, shakllantirishlari mumkin. Bola taraqqiyoti sohasining kompetensiyalari: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Ijtimoiy va hissiy rivojlanish. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish, bilish jarayonlarini rivojlanishi, ijodiy rivojlanish. Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" vazirligining maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida beshta markaz tashkil etilgan. Bolalar hafta mobaynida oladigan bilim va ko'nikmalarini har tomonlama mukammal va mustaqil egallay olishlari mumkin. Har bir yosh guruh xonasida:

Qurish-yasash va konstruksiyalash markazi;

Syujetli-rolli o'yinlar markazi;

Til va nutq markazi;

Fan va tabiat markazi;

San'at markazi tashkil etilgan bo'lishi lozim. Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o'rin kasb etadi, chunki bola markazda erkin faoliyat olib boradi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Markazlarda bolalar bilan o'yin orqali ishslash ularni zeriktirmaydi va qiziqishini yanada kuchaytiradi. Masalan: "San'at markazi bolajonlarning eng sevimli markazi hisoblanib, unda rasmlar chizib, raskraskalar bo'yashadi, aplikatsiya ishini, plastelindan o'zları xoxlagan narsalarni yasab, ijodiy faoliyat olib borishadi. Markazda "Non" haqidagi mashg'ulotimiz uchun kerakli jihozlarni tayyorlash va non rasmini chizish kerak bo'lsa, tarbiyachi faqatgina:"bolajonlar barchamiz non rasmini chizamiz va qani kim o'z rasmida qanday nonni aks ettiradi?" - deydi. Bolalar esa: kimdir chiroyli nonni, kimdir sedanali nonni, yana kimdir uyda onasi yopgan nonni rasmini chizishga harakat qiladi. Bu orqali bolada erkin fikrlash va tasavvur doirasi kengaytirish mumkin. Pedagogik jarayonlarni shakllantirishda birinchi navbatda, ta'lim dasturiga muvofiq rejalshtirish zarur. O'qituvchilar o'quv rejalarini va darslarning maqsadlarini aniq belgilab olishlari kerak. Bu jarayonda o'quvchilarning individual xususiyatlarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini inobatga olish muhimdir. Zamонавиј та'limda innovatsion yondashuvlar qo'llanilishi pedagogik jarayonlarni yanada samarali qilishga yordam beradi.

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

Masalan, interaktiv darslar, guruhli ishlar, loyiha asosidagi o'qitish kabi metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi. Pedagogik jarayonlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilishi zarur. O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini tinglab, ularning fikr-mulohazalariga e'tibor berishi lozim. Bu esa o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlanadiradi va ta'lim jarayonida ularning motivatsiyasini oshiradi. Pedagogik jarayonlarni shakllantirishda ta'lim sifatini baholash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini muntazam ravishda baholab, ularga zarur feedback berishlari kerak. Bu orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tahlil qilish va rivojlanirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Davlat o'quv dasturi asosida pedagogik jarayonlarni shakllantirish bir qator ilk qadamlardan iborat. Bu jarayonlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan. O'qituvchilar innovatsion yondashuvlar va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishlari mumkin. Natijada, bu nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-sон qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydag'i "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 391-sonli qarori.
3. Kalmuratov T.N. Norboev A. Expansion of the network of non-public preschool educational institutions on the basis of publicprivate partnership: experience of uzbekistan. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 8, 2020 Part III ISSN 2056-5852 Bet.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/ilk-qadam-davlat-o-quv-dasturi-asosida-talimi-faoliyat-jarayonni-rejalashtirish/viewer>
5. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/10633/7061/6789>